

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA SO'FI OLLOHYORNING O'RNI

Bozorova Marjona Shoyimqul qizi

TISU talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14812316>

Annotatsiya. *So'fi Ollohyor hayoti va ijodiy merosi, ilmiy faoliyati, pand nasihat ruhida ibratli fikrlari hamda So'fi Ollohyor haqida yozuvchi shoirlarimiz fikrlari, Prezidentimiz aytgan hayotiy gaplari haqida.*

Kalit so'zlar: *So'fi Ollohyor, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam, Xalifa Navro'z Shahrisabziy, Hoji Muhammad Habibulloh, Xoja Mo'min G'aznaviy, G'afur G'ulom, Boborahim Mashrab, "Maslak ul-mutaqqin" "Sabot ul-ojizin" asarlari va pand-nasihat ruhida adabiyot.*

THE PLACE OF SUFI ALLOHYAR IN THE HISTORY OF UZBEKISTAN LITERATURE

Abstract. *About the life and creative heritage of Sufi Allahyar, his scientific activities, his instructive thoughts in the spirit of advice and the thoughts of our poets who wrote about Sufi Allahyar, the life sayings of our President.*

Keywords: *Sufi Allahyar, our Prophet Muhammad, peace and blessings be upon him, Khalifa Navruz Shahrisabzi, Haji Muhammad Habibullah, Khoja Momin Ghaznavi, Gafur Ghulam, Boborahim Mashrab, the works "Maslak ul-mutaqqin" and "Sabot ul-ojizin" and literature in the spirit of advice.*

МЕСТО СУФИЯ АЛЛАХЁРА В ИСТОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *О жизни и творческом наследии Суфия Аллахаёра, его научной деятельности, его поучительных мыслях в духе совета, мыслях наших поэтов, писавших о Суфи Аллахаёре, и жизненных цитатах нашего Президента.*

Ключевые слова: *Суфий Аллахаёр, Пророк Мухаммад, мир ему и благословение, Халиф Навруз Шахрисабзи, Хаджи Мухаммад Хабибулла, Ходжа Момин Газнави, Гафур Гулам, Боборахим Машираб, произведения «Маслак ул-мутакин» и «Сабат ул-аджизин», а также литература в духе совета.*

U zotning ismi Ollohyor otasining ismi Ollohqulidir. Din yo'lidagi e'tiqod va xizmatlari uchun "So'fi" deb ulug'langan. U zotning tug'ilgan sanasi aniq emas. Taxminan 1644-yilda (1630-1650-yillar oraliq'ida) Samarqandning Kattaqo'rg'on bekligi Miyonkol mavzeiga qarashli Minglar qishlog'ida tug'ilgan. Yoshlik yillari O'tarchi qishlog'ida o'tadi. 6 yoshida Qur'oni karimni o'qib tugatadi. 12-yoshida Buxoroga borib, Buxoro amrligida obro'-e'tiborga ega bo'lgan Jo'ybor madrasasida tahsilini davom ettirib, ustozlaridan ta'lim-tarbiya oladi zamonasining

barcha asosiy ilmlarini puxta egallaydi. U zot arab, fors tillarini mukammal o'rgangan. So'fi Ollohyor o'zining iqtidori, qobiliyati donoligi sababli madarasani imtiyozli tamomlaydi.

So'fi Ollohyor naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, turkiy tasavvuf adabiyotining mashhur vakillaridan biri, mutasavvif va zullisonayn (ikki til ijodkori) shoir, faqih, yirik din peshvosi, alloma davlat arbobi hisoblanadi. Turkiy va arab forsiy tillarda ijod qilgan alloma. So'fi Ollohyor o'zbek adabiyotida Navoiydan keyingi naqshbandiya tariqatini she'riy shaklda davom ettirgan ulug' so'z san'atkoridir. U zotning adabiy me'rosi o'zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf tarixida alohida o'rin olgan. So'fi Ollohyor o'z ijodida komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlarini bosh maqsad qilib oladi. So'fi Ollohyorning ma'rifiy qarashlarida ko'proq sof islomiy e'tiqod, pok amallar, komil inson axloqi va ilohiy muhabbati talqini ifodalangan. U yoshlar tarbiyasiga butun jamiyat mas'ul ekanligini ta'kidlaydi. Alloma asarlari insonni pokiza hayot kechirishga targ'ib qiladi, vijdonli, adolatli, insofli, iymonli bo'lishga da'vat etadi. So'fi Ollohyor ijodining ijtimoiy mohiyatini, targ'ib va tashviqoti shariatni o'rganish, uni bilish, amal qilib sadoqat ko'rsatishdan iborat. Alloma o'z faoliyati bilan Sharqiy Turkistonda Oq Edil (Volga) bo'ylaridan Hindistongacha bo'lgan forsiy va turkiyzabon xalqlarga islomiy ma'rifat tarqatgan. Shu sababdan ham u turkiy va forsiyzabon xalqlar orasida obro'ga ega bo'lgan. So'fi Ollohyor ustozlarining silsilasi Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga borib taqalishi haqidagi ma'lumotlar olimlar tomonidan o'rganilgan. So'fi Ollohyor Xalifa Navro'z Shahrisabziy Hoji Muhammad Habibullohdan tariqat ilmidan, Xoja Mo'min Muhammad G'aznaviylardan fiqh ilmidan dars olgan degan ma'lumotlar mavjud. Uning pand-nasihatga yo'g'rilgan asarlari nafaqat Turkistonda balki, Qashqardan tortib Edil (Volga), Yoyiq (Ural) daryolari vohalari, Hojitarxon (Astaraxon), Bulg'or, Orenburg va boshqa mintaqlarda yashovchi xalqlar orsida keng tarqalgan. Axloqiy-ta'limiy jihatdan "Maslak ul-muttaqin"¹ "Sabot ul-ojizin" asarlari maktab va madarasalarda darslik sifatida foydalanilgan. Shu sababdan ham u asarlar ko'p nusxada chop etilgan. Asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilinganligidan ham bu asarlar hayot tarziga qanchalar muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asarlari tarjima qilinishi bilan bir qatorda ularga atab sharhlar yozilgan, lug'atlar tuzilib, tasavvufiy atamalar keng qo'llanilgan.

Allomaning forsiy va turkiy tilda yozilgan she'rlarida Islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini ham ta'riflab bergan. Asarlari keng omma ahliga tushunarli bo'lishi uchun maxsus lug'atlar ham tuzgan.

Imon va e'tiqodga oid kitob yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan alloma "Maslak ul-muttaqin" asarini yozadi.

¹ So'fi Ollohyor. "Maslak ul-muttaqin". Tarjimon Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar S.Sayfulloh va A. Dehqon. – T. : "Sharq", 2012.

U asardagi har bir g'oyani shariat hukmi, Qur'on va hadis asosida sharhlab, tushuntirib asoslab bergan. Asarda Alloh taloning qudrati, zoti sifatleri ta'risini tavsiflab bergan. Qur'onda zikr etilgan payg'ambarlarning nomlarini tilga olib ular bilan bog'liq voqea-hodisalarni bayon etilgan. Shuningdek asarda iymon keltirish, ro'za tutish, zakot berish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan. Allomaning

Agarchi ul oyog' ostidandurxor,

Xudo maxluqidur, og'ritma zinhor.

Bu misralar orqali: Agar birov oyoq ostidagi bir tikanchalik bo'lsa, ham unga zinhor ozor berma. U ham Xudoning maxluqidur deya ta'kidlaydi. Insonlarni baland martabalarga ko'tarib, oyog'ing ostidagi tikan bolsa, ham unga ozor berma deb xitob qiladi. So'fi Ollohyor Olloh yaratgan bandalariga ham ko'plab pand-nasihatlar berib o'tadi:

Kel, ey zohid, o'zingni aylagil xok,

Harom-u shubhadin ko'ngilni qil pok

Ey Ollohgga bandalik qilib yurgan insonlar, o'zingizni tuproq bilan teng qil. Ya'ni harom va shubhali narsalardan og'zingni tiyib, xulqingni poklagin deb insonlarni pok yo'llarga chorlaydi. Bundan tashqari alloma insonlarni qo'llaridan kelmaydigan ishlarni qilmaslikka, va'da berib vadasini bajarmay ketishligi haqida ham alohida to'xtalib o'tadi.

Chiqarmag'il og'zingdin qilmas ishni,

Qilurman dema qo'ldan kelmas ishni.

Bu misralar orqali shoir quruqdan-quruq va'da berib uni, bajarmay ketgan vadaboz kimsalar haqida fikr yuritadi. Qilmas ishing xususida birovga va'da berma. Qo'lingdan kelmaydigan ishga so'z berib qo'yma deya ta'kidlaydi. Chunki va'da bergach, uning ustidan chiqish, erlik alomatidir degan fikrlarini bayon etgan. Allomaning barcha misralarida hayot uchun zarur va kerakli, pand o'gitlar keltiriladi. Yaxshi va yomon til xususida o'z qarashlarini bayon etadi.

Yomon til goh sarg'aytirur yuzingni,

Tuban boshingni, telmurtar ko'zingni.

Yomon til goho yuzingni sarg'aytirs, gohi boshingni egib, o'zingni mashaqqatlarga solib, ko'zingni jovdiratib qo'yadi deya sodda til uslubida xalqqa o'z fikrlarini tushuntirib beradi. Gapirganda og'zingdan ma'ni durlarini soch deya ta'kidlaydi. Agar bu ishlarni qila olmasang, tek tur va odamlarning so'ziga quloq tut deb o'z fikr mushohadalarini aytib o'tadi.

Bu misralar orqali anglaymizki, Alloma bunday satrlari orqali insonlarga yaxshi yo'llardan yurishga va'da berib va'dasining ustidan chiqishga yaxshi ishlarni qilishga yolg'on gaplardan saqlanishga chorlaydi.

Yaxshi soʻz aytmoqlik qoʻlingdan kelmasa, unda bilginki sukut saqlab, insonlarni eshitmoqlik va soʻzlaridan ibrat olmoqlik zoʻr davlatdir deb oʻzining oltinga teng firlarini bayon etadi. Shuni ham taʼkidlaydiki: Zero, demishlarki, sukut-gʻanimatdir.

Quloq solma vale bemaʼni soʻzga,

Eshitsang - qoʻp u yerdan oʻzga yerga.

Esing boʻlsa koʻp beʼmani foydasiz soʻzlarga quloq solma. Unday soʻzlar boʻgan joylarni tark et deya insonlarni pok va toʻgʻri yoʻllarga chorlaydi. Yana shuni ham takidlaydiki,

Agar uch kunda topsang parchayi non-

Yema yolgʻuz ani, yarmini qil ehson.

Agar sen uch kunda bir burda non topsang-da, uni yolgʻiz oʻzing yema, yarmini miskinlarga ber deya bu fikrlardan koʻrinadiki, Soʻfi Ollohyor qanchalar bilimli va zakovatli inson boʻlgan. Huddi shu misralar kabi nasihatlar Imom Al-Buxoriyning hadislar toʻplamida ham keltirilgan quyidagi fikrlardan anglashiladiki, Soʻfi Ollohyor baland martabali yuksak sifatlarga boy din va diyonatdan habardor mashhur shaxylardan boʻlgan. Bunday ibratli hayotiy fikrlardan keyin Soʻfi Ollohyor haqida koʻplab yozuvchilarimiz oʻzlarining fikrlarini aytib oʻtishgan.

Akademik Gʻafur Gʻulom 60- yillarda Samarqandga kelganida Obirahmat boʻyidagi bir suhbatida Samarqand olimlariga qarata: “Soʻfi Ollohyor bobomiz haqida shunday fikrlarini bayon etadi... Ulugʻ bobomiz haqida bir narsa yozib koʻringlar, u zoʻr boʻlmasa, Mashrab Soʻfi Ollohyorni uch marta izlab, yoniga kelarmidi?” degan iliq firlarini aytib oʻtgan.

Haqiqatdan ham Boborahim Mashrab Soʻfi Ollohyor bilan ikki marta Kattaqoʻrgʻonda uch marta Hisor vohasidagi Qabodiyonda uchrashishadilar. Birinchi marta Mashrab Buxorodan qaytib kelayotganida yoʻlda bir dehqonning uyiga kirib dam oladi. Bu habar Soʻfi Ollohyorga yetib boradi va shundan keyin Soʻfi Ollohyor ixlos bilan Boborahim Mashrab yoʻliga peshvos chiqib uni ilqlik bilan kutib oladi. Mashrab Kattaqoʻrgʻonga uchinchi marta kelganida, Soʻfi Ollohyor Qabodiyonda boʻlgan. Bu toʻgʻrisida Mashrab gʻazallarining birida shunday deydi:

Topmasak Soʻfiy izin

Kattaqoʻrgʻona yurib,

Qoʻsh Olloyor deb,

Azmi Hisor istar koʻngul.

Bu baytlar orqali Mashrab Soʻfi Ollohyorning izini Kattaqoʻrgʻonni aylanib topmasak, bu koʻnglimiz Hisorni (togʻ nomi) istaydi deb goʻzal tarzda ifoda etadi. Bundan tashqari prezidentimiz:

Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy va Termiziy

Allomalarning Benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan

Ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida

Keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh

Avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini

Yanada kuchaytirish maqsadida shu kabi firlarini bildirib o'tgan.²

Alloma taxminan 1724-yilda vafot etgan degan qarashlar mavjud. Uning qabri Surxandaryo viloyati Oltinsoy tumani Vaxshivor qishlog'ida joylashgan.³ So'fi Ollohyor avlodlari hozirga qadar ushbu joyda istiqomat qilib kelishadi.

Shu qarorga binoan, So'fi Ollohyor mangu qo'nim topgan maskanini obod qilish maqsadida "So'fi Ollohyor" jamg'armasi tashkil etilgan. Bundan tashqari alloma ijodini ilmiy jihatdan o'rganish va yoshlarimiz ongiga qolaversa, kitobxon muxlislarga yetkazish ishlari tez sur'atlarga amalga oshirildi. Mustaqillikdan tortib hozirgi kunga qadar So'fi Ollohyor hayoti, va ilmiy faoliyati asarlarining tarjimalari yurtimiz olimlari tomonidan nashr qilindi.

Shu kabi g'oyalardan ilhomlanib So'fi Ollohyor hayoti ilmiy faoliyati haqida konfrensiyalar va ilmiy seminarlar tashkil qilindi, jurnal gazetalarda maqolalari chop etila boshladi.

Yurtimizda mustaqillikkacha jahon ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk siymolarimiz hayoti me'roslarini o'rganish dolzarb muammoga aylangandi. Mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimizga oid an'analarning qayta

²Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2774-sonli qarori asosida tashkil etilgan.

³Abdusattor Jumanazar.Vaxshivor (hammasi So'fi Ollohyor haqida).-T. : Akademnashr, 2015.

tiklanishi allomalar faoliyatini o'rganish bo'yicha berilgan e'tibor xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy yuksalishda muhim omil vazifasini o'tadi.

Bugungi kungacha xalqimizning ko'plab xonadonlarida So'fi Ollohyorning "Maslak ul-muttaqin" "Sabot ul-ojizin" asarlari joy olib kelmoqda. So'fi Ollohyor Markaziy Osiyo mintaqalarida yashovchi turkiy va forsiy xalqlarning asarlari bilan bahramand etib, ularni yagona islomiy axloqiy g'oyalar ostida birlashtirdi. Shu sababli turli mintaqalarda yashovchi xalqlar bir-birlari bilan ma'nan yaqinlashdilar, ma'rifatparvarlik g'oyalaridan xabardor bo'ldilar.

Allomaning asarlarida dunyo hayotining ma'no-mazmuni insonlarning jamiyat oldidagi vazifalari, yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi, tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rni, ustoz-shogird odoblari, farzand tarbiyasi, yomon xulqning zararli taraflari, kamtarlikning foidasi, sabr-qanoat manfaati, halol kasb qilish to'g'risidagi fikrlari mas'uliyatli ilm fazilati, toat-ibodat lazzati, anbiyo-u avliyolar tarixi, sahobalarning fidoyiligi hamda dunyo va oxirat ishlarini isloh qiladigan amallardan tashkil topgan.

REFERENCES

1. So'fi Ollohyor. "Maslak ul-muttaqin". Tarjimon Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar S. Sayfullah A. Dehqon. - Toshkent. : "Sharq", 2012-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent shahri, 2017-yil 14-fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2774-sonli qarori asosida tashkil etilgan.
3. Imom Termiziy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Buyuk Termiziylar So'fi Ollohyor Toshkent-2021.
4. Abdusattor Jumanazar. Vaxshuvor (So'fi Ollohyor haqida). - Toshkent.: Akademnashr, 2015.